



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

## Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
2022-yil 25-oktyabrda  
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan  
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va  
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi  
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi  
№354-sonli qarori bilan  
**Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy attestatsiya  
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy  
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,  
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.  
Electron manzil: info@adpi.uz  
Telegram: ADPI\_Ilmiy\_xabarnomasi  
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

**BOSH MUHARRIR:**  
**B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**Mas'ul muharrir:**  
**B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**

### TAHRIR KENGASHI

**S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi**  
**I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor**  
**Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor**  
**A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor**  
**B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**  
**Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor**  
**Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor**  
**Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor**  
**T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor**  
**A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent**  
**A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor**  
**U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor**  
**M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor**  
**L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor**  
**Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent**  
**D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor**  
**N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**  
**U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**  
**M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**  
**M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**Muharrirlar:**  
**O.Karimov,**  
**U.Malikova,**  
**B. Mashrabova.**

## MUNDARIJA

### PEDAGOGIKA

<b>Hasanov Sh.A.</b> Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini .....	4
<b>Qoraboyev J.B.</b> "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi .....	8
<b>Umurzaqova N.S.</b> Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi .....	13
<b>Камалходжаева С.С.</b> Язык как объект лингвистического исследования .....	16
<b>Абдуллаева А.Э.</b> Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков .....	19
<b>Karimov O.T., Mirzayev O.X.</b> Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari .....	23
<b>Jo'rayeva M.A.</b> Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish .....	29
<b>Ikromov M.X., Abduraimova M.A.</b> Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni .....	33
<b>Ikromov M.X., G'ulomova M.N.</b> Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish .....	37
<b>Mamatisaqova G.A.</b> Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi .....	41
<b>Mamadaliyev B.K.</b> Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish .....	45
<b>Axmedova D.X.</b> Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari .....	48
<b>Kosimova G.M.</b> Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash .....	53
<b>Xoldarova M.Q., Tairova M.B.</b> Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	57
<b>Abdurahmonova H.V.</b> Saniye Benjik Kangalning o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari .....	61
<b>Xurshidbekov A.M.</b> Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari .....	67
<b>Olimjonov O.O.</b> Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari .....	71
<b>Usarov M.M.</b> Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi .....	75
<b>Karimova F.Z.</b> Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari .....	80
<b>Xakimov Sh.T.</b> Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari .....	83
<b>O'rinboyev L.X.</b> Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni .....	89
<b>Sobirjonov I.T.</b> Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari .....	95
<b>No'monova G.D.</b> Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish .....	100
<b>Xodjayev M.K.</b> Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari .....	105
<b>Kodirov M.A., Otashev D.R.</b> Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari .....	110
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli .....	114
<b>Samatov D.T., Abdullaev G'A.</b> Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi .....	118
<b>Mullajonov Sh.I.</b> Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli .....	124
<b>Otashev D.R., Otasheva O.H.</b> O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni .....	129

kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishga undaydi. Farmasevtika ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan professor-o'qituvchilarning kasbiy va pedagogik kompetensiyalariga bog'liq ekanligi ham tadqiqot davomida aniqlandi. Xorijiy ta'lim tizimlarida o'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali ta'lim sifati ta'minlanadi. Shu bois milliy farmasevtika ta'limi tizimida ham o'qituvchilarning innovatsion pedagogik texnologiyalarni egallashiga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Umuman olganda, xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish va uni milliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish farmasevtika ishi yo'nalishida ta'lim sifatini oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish orqali zamonaviy, raqobatbardosh, yuqori malakali farmasevt mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta'lim tizimini takomillashtirishga, balki sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilayotgan farmasevtik xizmatlar sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Pharmaceutical Federation (FIP). Global Competency Framework for Pharmacists. The Hague: FIP, 2020.
2. Anderson C., Bates I., Beck D. Competency-based education in pharmacy: A global overview // Pharmacy Education Journal. – 2018. – Vol. 18(1). – P. 1-10.
3. Accreditation Council for Pharmacy Education (ACPE). Accreditation Standards and Key Elements for the Professional Program in Pharmacy Leading to the Doctor of Pharmacy Degree. Chicago, 2021.
4. Toklu H. Z., Hussain A. The changing face of pharmacy practice and the need for competency-based education // Journal of Pharmaceutical Policy and Practice. – 2019. – Vol. 12(1). – P. 1-8.
5. Болонский процесс. Европейское пространство высшего образования: основные документы и материалы. – Брюссель, 2020.
6. Юсупова Н.А., Каримов Ш.Ш. Фармацевтика таълимида инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: "Fan va texnologiya", 2022. 77-b.

UO'K37.371.51.51(077)

### BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILAR UCHUN KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRUVCHI AMALIY MASHG'ULOTLAR TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH

<https://zenodo.org/records/18754616>

**Mamadaliyev Baxtiyor Kamildjanovich**  
Andijon davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif kreativlik tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilib, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirishning metodik asoslarini ishlab chiqadi. Maqolada kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimi taklif etilgan bo'lib, u diagnostika, motivatsiya, amaliy faoliyat va refleksiya bosqichlaridan tashkil topadi. Tadqiqot jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, yangi g'oya ilgari surish, innovatsion dars shakllarini ishlab chiqish ko'nikmalari rivojlanganligi aniqlangan. Natijalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ salohiyatini oshirishda amaliy mashg'ulotlar tizimi samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** kreativ fikrlash, amaliy mashg'ulotlar tizimi, pedagogik innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, kreativ kompetensiya, refleksiya.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития креативного мышления у будущих учителей начальных классов. Автор анализирует теоретические основы понятия «креативность» и разрабатывает методические подходы к формированию творческого мышления в процессе профессиональной подготовки педагогов. Предложена система практических занятий, направленная на развитие креативного мышления, включающая диагностический, мотивационный, практический и рефлексивный этапы. В ходе исследования

выявлено, что студенты приобретают навыки самостоятельного анализа, генерации новых идей и разработки инновационных форм обучения. Результаты показывают эффективность внедрения данной системы в подготовку будущих педагогов.

**Ключевые слова:** креативное мышление, практические занятия, педагогические инновации, начальное образование, креативная компетенция, рефлексия.

**Abstract.** This article discusses the development of creative thinking among future primary school teachers. The author analyzes the theoretical foundations of creativity and proposes methodological approaches for fostering creative thinking in teacher training. A system of practical activities designed to enhance creative thinking is presented, consisting of diagnostic, motivational, practical, and reflective stages. The research revealed that students developed skills in independent thinking, idea generation, and the creation of innovative teaching methods. The findings demonstrate that the proposed system of practical activities effectively contributes to the development of creative potential among future teachers.

**Keywords:** creative thinking, practical training system, pedagogical innovation, primary education, creative competence, reflection.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining roli shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxs sifatida baholanmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning tafakkuri, qiziqishi va ijodiy salohiyati shakllanadi. Shu boisdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularni kasbiy tayyorlash jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot kommunikatsiya vositalari, innovatsion metodlar keng joriy etilmoqda. Ammo o'qituvchi shaxsining kreativ salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, bunday vositalarning samarasi cheklangan bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish, uni o'quv jarayoniga integratsiya qilish zaruriy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

#### 1. Kreativ fikrlash tushunchasi va uning pedagogik mazmuni

Kreativlik — bu shaxsning muammoga noodatiy yechim topish, mavjud g'oyalarni yangicha shaklda ifodalash, yangi bilim va mahsulot yaratish qobiliyatidir. Pedagogik jarayonda kreativ fikrlash o'qituvchining:

o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishi,

darslarni yangicha yondashuv bilan tashkil etishi,

o'qitish jarayonida ijodkorlikni namoyon etishi kabi jihatlar orqali namoyon bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun kreativ fikrlash — bu metodik, mantiqiy, estetik va psixologik jihatdan muvozanatli ijodiy yondashuvni bildiradi. U o'z darsida nafaqat bilim beradi, balki har bir o'quvchida qiziqish, ishonch va yangi fikr uyg'otadi.

#### 2. Kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari

Kreativ fikrlashni rivojlantirish nazariyasi J.Gilford, E.Torrens, G.Altshuller, A.Maslou, L.Vigotskiy, Sh.Amonashvili kabi olimlarning asarlarida keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida quyidagi jihatlar asosiy e'tiborga olingan:

Gilford kreativlikni tafakkurning mustaqilligi va moslashuvchanligi sifatida talqin etadi;

Torrens kreativlikni o'lchovchi testlar orqali aniqlash tizimini ishlab chiqqan;

Altshuller ijodiy masalalarni hal qilish nazariyasini (TRIZ) ishlab chiqqan;

Vigotskiy esa kreativlikni bolaning rivojlanish zonalari bilan bog'liq holda o'rganishni taklif etgan.

Mazkur nazariyalar asosida pedagogik amaliyotda kreativlikni shakllantirish jarayoni motivatsion, kognitiv, amaliy va reflektiv bosqichlardan tashkil topadi [2].

3. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish zarurati

Bugungi ta'lim muhitida o'qituvchidan faqat dars o'tish emas, balki o'quvchilarni mustaqil o'rganish, tahlil qilish, muloqot va ijodiy faoliyatga jalb etish talab etiladi. Bu esa kreativ fikrlashni zarur kompetensiya sifatida qarashni taqozo etadi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun kreativ fikrlash quyidagi jihatlarida muhimdir:

didaktik jihatdan — yangi dars metodlarini ishlab chiqish;

psixologik jihatdan — o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;

texnologik jihatdan — interfaol vositalardan samarali foydalanish;

axloqiy jihatdan — mustaqil, mas'uliyatli va yangilikka ochiq shaxs sifatida shakllanish.

4. Kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish bosqichlari

4.1. Tizimni ishlab chiqishning maqsadi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ fikrlashini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi, ularni innovatsion dars tashkilotchisiga aylantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish.

4.2. Tizimni yaratish bosqichlari

1. Diagnostika bosqichi: Talabalarning kreativ fikrlash darajasini aniqlash (test, anketa, kuzatuv).

2. Motivatsiya bosqichi: Ijodiy muhit yaratish, rag'batlantiruvchi topshiriqlar berish.

3. Amaliy bosqich: Mashg'ulotlarda kreativ faoliyatni yo'lga qo'yish.

4. Refleksiya bosqichi: O'rganilgan tajribani tahlil qilish, natijalarni baholash.

4.3. Amaliy mashg'ulotlar tizimi tarkibi

Tizim quyidagi mashg'ulot turlarini o'z ichiga oladi:

1. Ijodiy muammoli topshiriqlar – "Agar men o'qituvchi bo'lsam...", "Darsni yangi usulda tashkil et".

2. Rol o'ynash mashg'ulotlari – o'quvchi va o'qituvchi rollarida ijodiy vaziyatlar yaratish.

3. Dizayn fikrlash mashg'ulotlari – dars jarayonida yangi mahsulot yoki loyiha yaratish.

4. O'yinli va interfaol mashg'ulotlar – "Brainstorming", "Mind map", "Case-study" usullari.

5. Pedagogik eksperiment mashg'ulotlari – dars jarayonida yangi metodni sinovdan o'tkazish.

6. Amaliy mashg'ulotlarning namunaviy tuzilmasi [3].

<b>Mashg'ulot bosqichi</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Natijasi</b>
1. Motivatsiya	Mavzuga oid muammoli savol yoki vaziyat	Fikr uyg'onishi
2. Tahlil	Guruhli muhokama, misollar tahlili	Mustaqil fikrlash
3. Ijodiy yechim	O'z g'oyasini ishlab chiqish va himoya qilish	Kreativ yondashuv
4. Refleksiya	Fikr-mulohaza, baholash, xulosa	O'z faoliyatini tahlil qilish

6. Tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari

Tajriba ishlari davomida pedagogika yo'nalishidagi 3–4-bosqich talabalari bilan maxsus mashg'ulotlar tizimi joriy etildi. Natijada:

80 % talabalar kreativ masalalarni yechishda mustaqil yondashuv ko'rsatdi;

70 % talabalar yangi dars g'oyalarini ishlab chiqishga harakat qildi;

65 % talabalar “o‘quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish”ga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqdi.

Bu natijalar mashg‘ulotlar tizimining samaradorligini ko‘rsatdi.

7. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchi roli

Bo‘lajak o‘qituvchi quyidagi kompetensiyalarni egallashi zarur:

Ijodiy metodik kompetensiya: yangi dars shakllarini ishlab chiqish.

Tahliliy kompetensiya: pedagogik vaziyatni tahlil qila olish.

Texnologik kompetensiya: AKT va interfaol vositalardan foydalanish.

Kommunikativ kompetensiya: o‘quvchilar bilan erkin muloqotda bo‘lish.

Kreativ o‘qituvchi — bu yangilik yaratuvchi, motivatsiya beruvchi va o‘quvchini fikrlashga o‘rgatuvchi shaxsdir [4].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirish zamonaviy ta‘lim tizimining ustuvor yo‘nalishidir. Shuning uchun:

1. Talabalar uchun maxsus amaliy mashg‘ulotlar tizimi ishlab chiqilishi zarur;

2. Mashg‘ulotlar jarayonida motivatsiya, ijodiy fikr va refleksiya komponentlariga alohida e‘tibor berish kerak;

3. O‘qituvchining kreativ fikrlash darajasi uning kasbiy muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liqdir;

4. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar kreativlikni rivojlantirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan amaliy mashg‘ulotlar tizimi — ta‘lim jarayonining innovatsion va samarali elementi bo‘lib, u o‘quvchilarda ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Torrance E.P. Creativity: What Research Says to the Teacher. National Education Association, 1974.

2. Karimov B. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2022. 77-b.

3. Kamildjanovich, M. B. (2025). Amaliy dasturiy vositalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish. Global Science Review, 2(1), 57-63.

4. Kamildjanovich, M. B., & Bazarbaevich, M. K. Oral Calculation Methods Use in Preparation of Creative Students. International Journal on Integrated Education, 3(10), 194-196.

UO‘K 373.3.013(075.8)

#### **BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA IJODIY YOZUV KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING YANGI METODLARI**

<https://zenodo.org/records/18754622>

**Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi**

*Qo‘qon universiteti Andijon filiali*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, psixologik va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligi, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida taklif etilayotgan yangi metodlar ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda yozuv jarayonining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda 1–4-sinf o‘quvchilarida yozuv malakasining bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, ijodiy yozuv bo‘yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari solishtirilgan holda yoritilgan.

